



UDK: 364.12.2(575.1)

Xasanboy QOSIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktranti
E-mail: xasanboy.qosimov81@gmail.com

TDSHU dotsenti S.Tashtayeva taqrizi asosida

SHAHARLAR SHAKLLANISHI OMILLARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada shaharlarning shakllanish omillari va ularni takomillashtirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shaharlar shakllanishi Andijon viloyati misolida tahlil qilingan. Shaharlarni rivojlanish imkoniyatlariga baho berilgan va ishlab chiqilgan bosh rejalar tahlili asosida muallifning fikr muloxazalari keltirilgan. hududlarning urbanizatsiya jarayonining hozirgi kundagi imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Shaharlar, shahar funktsiyalari, transport, sanoat, bosh reja, viloyat.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГОРОДОВ (В СЛУЧАЕ НА ПРИМЕРЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

В данной статье описаны факторы формирования городов и вопросы их благоустройства и развития. Формирование городов проанализировано на примере Андижанской области. Мнения автора представлены на основе анализа возможностей развития городов и разработанных генеральных планов. Даны рекомендации по использованию современных возможностей процесса урбанизации регионов.

Ключевые слова: Города, городские функции, транспорт, промышленность, генеральный план, область.

FACTORS FOR THE FORMATION OF CITIES (IN CASE OF ANDIJAN REGION)

Annotation

This article describes the factors in the formation of cities and the issues of their improvement and development. The formation of cities is analyzed on the example of the Andijan region. The author's opinions are presented on the basis of urban development opportunities and developed master plans. recommendations are given on the use of modern opportunities for the process of urbanization of regions.

Key words: Cities, city functions, transport, industry, master plan.

Kirish. Shaharlar iqtisodiy geografik obekt bo'lib, ma'lum bir shart sharoitlarda vujudga keladi. Shaharlar asosan tabiiy sharoitga bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Bizga ma'lumki, shaharlar dastlab issiq mintaqalarda va sug'orma dehqonchilik hududlarida vujudga kelishining sababi yetishtirilgan mahsulotlarni ortiqchasini ayriboshlash uchun ma'lum bir joy savdo sotiq uchun tanlanishidan paydo bo'ldi. Shunday shaharlar bundan 7000-yil avval Yaqin sharq hududlarida vujudga keldi (Quddus, Bog'dod, Damashq, Qohira va boshqalar). Shaharlarni rivojlanishida markazlashgan davlatlar vujudga kelishi natijasida xarbiy qal'a va markaz shaharlar vujudga kela boshladi. Antik davrda O'rta asrlarda bunday shaharlar ko'plab shakllandi (Toshkent, Moskva, Parij, London va boshqalar).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda ko'rilayotgan muammoning geografik jihatlari 1960-70-yillarda shaharlarning tez rivojlanishi bilan bog'liq holda I.Smirnov, T.Raimov, O.Ota-Mirzaev, A.Soliyev, A.Qayumov va boshqalar tamonidan o'rgangan [3]. Shuningdek, alohida mintaqalar doirasida T.Mallaboev, Sh.Imomov, Z.Raimjonovlarning ilmiy ishlarini keltirish o'rinni. Mustaqillik davrida H.Tursunov, Z.T.Abdalova, M.Erdonov, S.K.Tashtayeva, M.Egamberdiyeva, A.Mavlonov, P.Qurbonov va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Sanoat rivojlanishi bilan shaharlarni shakllanishida xom ashyo, yani tabiiy resurslarning o'rni ortib bordi. Sanoat uchun muhim bo'lgan tabiiy resurslarning yaqinida yangi shaharlar paydo bo'ldi (Manchester, Mineralniy voda, Jezqazan, Angren, Bekobod, Olmaliq va boshqalar).

Sanoatni rivojlanishi bilan birga transport ham rivojlanib bordi. "Shaharlar yo'llar bilan birga hududning asosini yani qovurg'asini tashkil qiladi" deb takidlagan edi N.Baranskiy[4]. Dastavval transport yo'llari mavjud shaharlarga qarab o'tkazilgan bo'lsa, keyinchalik transport chorrahalari va yo'llarida yangi shaharlar vujudga kela boshladi. Xovos, Dallas, Novosibirsk va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Shaharlarni rivojlanishida eng muhim omil bu albatta aholidir. Aholisiz shahar bo'laydi, aholining ehtiyojiga ko'ra shahar vujudga keladi. Shaharlarning rivojlanishini, katta-kichikligini undagi aholi soni belgilab beradi.

20-asr ikkinchi yarmidan shaharlarni rivojlanishida FTI (Fan texnika inqilobi) asosiy o'rin egallay boshladi. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlar sifatida ilm -fan va texnikaviy markazlar hisobiga shaharlar shakllanib bordi [3]. 21-asrga kelib esa shaharlarni rivojida yuqoridagilardan tashqari turizm, moliyaviy markazlar va madaniy sohalar ham shahar rivojiga ta'sir qiluvchi yatakchi omillar qatoridan joy oldi.

Tahlil va natijalar. Andijon viloyati shaharlarini shakllanishida ham yuqoridagi omillar ta'siri katta bo'lgan. Shu bilan bir qatorda o'ziga xos mahalliy omillarning ham roli bor, albatta. Hozirgi kunda viloyatda 90 ta shahar tipidagi manzilgoxlari mavjud bo'lib 11 tasi shaharlar va 79 tasi shaharchalardan iborat [8].

Andijon viloyati shaharlarning joylashuvi tahlillari shuni kўrsatadiki, ularning deyarli hammasi gidrografik tarmoqlar yonida, yani daryo yoki kanallar qirg'og'ida yoda yaqinida joylashgan.

Andijon viloyatidagi asosiy gidgoraqiqlik tarmoq Qoradaryo xisobiga to'g'ri keladi. U viloyat aholi manzilgoxlarini joylashuvining "bosh uki" hisoblanadi. Shaharlar asosan shu daryodan va shu daryodan suv oluvchi kanallar yonida shakllangan. Qoradaryoning o'ng qirg'og'ida Xonobod shaxri, Qoradaryoning chap soxilida Andijonsoy qirg'og'iga Qorasuv, Qo'rg'ontepa, Jalalquduq va Andijon shaharlari joylashgan. 18-asrda qazilgan Shaxrison qirg'oqlarida Xo'jaobod, Asaka va Shaxrison shaharlari joylashgan bo'lsa, Janubiy Farg'ona kanali bo'yida Marxamat shaxri, Shimoliy Farg'ona kanali yaqinida Poytug' shahri va Qoradaryoning o'ng irmog'i Maylisoy yonida Paxtaobod shahri shakllangan.

Shaharlarni paydo bo'lishiga nazar tashlansa viloyat markazi Andijon shahri 2000-yillar avval Oqbo'ya daryosining quyi qismida (Andijon shahrida 19-asr oxirida qadar Oqbo'ya daryosi suvi yetib kelgan) Qoradaryoning yaqinida tashkil topgan (3 54). Andijon shahrini shakllanishida uning muhim savdo yo'lida joylashganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Shaharning keyingi yillarda rivojlanishida 15-asrdan boshlab muhim siyosiy markazlardan bir bo'lganligi tufayli asrlar davomida shaharning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Chor Rossiyasining istilosidan keyin Andijongacha temir yo'l tortib kelinishi va Sobiq ittifoq davrida siyosiy ma'muriy o'zgarishlar natijasida Andijon shahri 1941-yildan shu nomdagi viloyat markazi sifatida shahar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xozirgi kunda xam shahar O'zbekistonning shaharlari ierarxiyasida rivojlanishiga ko'ra to'rtinchi o'rinni "ma'muriy markaz" maqomi va qulay geografik o'rni tufayli saqlab kelmoqda. Andijon shahri geografik o'rni ko'ra viloyatning qoq markazida joylashganligi, tumanlarni boshqarish nuqtai nazaridan viloyat hududining kichik va kompaktiligi uchun xam shaharning keyingi yillarda rivojlanishini kuzatish mumkin.

Viloyatda iqtisodiy jixatdan 2-o'rinda turuvchi shahar Asaka shahrini vujudga kelishiga 18-asrning oxirida Shaxrisonsoy qazilishi bilan shaharda dastlabki tamal toshi qo'yilgan (3 55). 19-asr oxirida shahardan temir yo'l o'tkazilib stansiya barpo etilishi natijasida shahar hududida asta sekin paxta tozalash korxonalari bunyod etila boshlandi. Asakani shahar xosil qiluvchi omili sifatida transport hamda sanoatni keltirish mumkin.

Oktabr inqilobiga qadar shahar o'rnida Assake kishlogi bo'lgan. 1924-1937-yillarda shahar, inqilobchi rahbar Zelenskiyning nomiga Zelensk deb atalgan. Zelenskiy qatag'onga uchraganidan so'ng, 1937-yilda shahar nomi inqilobchilar dohiysi sharafiga Leninsk deb o'zgartirilgan (3 55). 1991-yilda shaharning tarixiy nomi Assake Asaka deb qayta tiklangan. Asaka 2010- viloyatga bo'ysunidagi shahar bo'lgan, shu yildan boshlab tuman bo'ysuniviga tushirilgan.

Keyingi yillarda shaharni rivojlanishida uning muxim transport yo'lida yani Andijon Fargona va Andijon Margilon avtomobil yo'li chorxasida joylashganligi va demografik saloxiyatning yuqoriligi aloxida ahamiyat kasb etdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Asaka shahrida avtomobil korxonasini ishga tushirilishi shaharni rivojida sezilarli darajada xissa qo'shdi. Oxirgi yillarda Asaka shahri muxim xizmat ko'rsatish markazi sifatida xam rivojlanib bormoqda.

Aholi soniga ko'ra viloyatda Andijon shahridan keyingi o'rinda turuvchi Shaxrison shahrida xam 18-asr boshida ko'chirib kelingan O'ra tepaliklar va Qoshg'ardan kelgan o'zbeklar uchun Umar xon buyrug'i bilan tashkil qilingan. (3 55). Shaxrisonsoy qazilib suv olib kelinib bo'z yerlar o'zlashtirila boshlandi. 1939-yilgacha shahar Shaxrison qishlog'i deb atalgan va Stalina nomi berildi. Shahar nomi 1954-yili Maskovskiyda 1970-yildan esa Shaxrison nomi qayta berildi (3 55). Shahar 2002 yilgacha viloyat bo'ysinuvdagi shahar bo'lgan. Shaharni rivojlanishida xududning demografik saloxiyati muxim sanaladi, Shaxrison shahri shu nomdagi tuman markazi bo'lib bu tumanda viloyat tumanlari ichida eng ko'p aholi istiqomat qiladi. 1970-yillari shaharda temir yo'l tortib kelinishi shahar rivojida xissa qo'shdi. Xozirgi kunda shaharda 80 mingdan ortiq aholi bo'lib keyingi yillarda shahar asosan xizmat ko'rsatish va savdo sotiq markazi sifatida rivojlanib bormoqda [6].

Xonobod shahri Viloyatning sharqiy tamoni Qoradaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Shaharga 1972-yili Andijon suv ombori qurilishi va uning negizida bunyod etilgan GES va bir qancha sanoat korxonalari vujudga kelishi natijasida shahar maqomi berilib yangi shaharsozlik normalari asosida binolar qad rostladi. Shu yilning o'zidan viloyat ahamiyatidagi shahar sifatida belgilandi. 1980-yillarda shaharni rivojlanishida turizm xam muxim rol o'ynadi [5]. Mustaqillikdan so'ng shaharning rivojlanishida turg'inlik yuzaga keldi. Aholi sonida kamayish kuzatildi 1990-yilda shaharda 33 ming aholi bo'lgan bo'l sa 2000-yilda aholi soni 25 mingacha kamayib ketdi, buning asosiy sababi shahardan rusiyazon aholining ko'chib ketishidir. Lekin keyingi yillarda xududda qayta etibor tufayli shaharni rivojlanishi yangi bosqichda o'tdi. Shaharda aholining takror barpo bo'lishi faqat tabiiy ko'payish hisobiga o'sib bormoqda.

1-jadval

Andijon viloyati shaharlarining aholi soni dinamikasi

№	Shaharlar	Tashkil topgan yili	1970	1990	2000	2005	2010	2015	2020	2023
1	Andijon	X-acp	188.0	310.0	334.3	352.6	373.8	403.9	449.9	468.0
2	Asaka	1937	28.5	46.0	51.8	54.9	57.4	64.4	73.4	77.7
3	Xonobod	1972		33.0	25.3	25.9	26.1	27.8	31.2	33.0
4	Qorasuv	1980		20.0	25.6	27.5	30.2	33.9	37.2	39.0
5	Shaxrison	1970	10.3	44.0	58.2	62.0	67.4	74.2	82.6	85.9
6	Jalalquduq (Oxunboboyev)	1975		15.0	19.6	20.6	22.0	24.5	26.4	27.2
7	Poytug'	1980		26.0	24.1	24.5	25.6	26.8	30.2	31.2
8	Qo'rg'ontepa	1976	6.9	22.0	25.2	26.8	29.4	31.8	35.2	36.4
9	Marhamat	1974		17.0	11.7	12.0	12.9	14.1	17.1	17.7
10	Paxtaobod	1975		25.0	22.1	23.4	24.7	35.2	37.9	39.0
11	Xo'jaobod	1981		15.0	16.2	17.2	18.5	20.5	22.9	23.9

Jadval muallif tamoni tuzildi

Manbalar: A.Soliev.S.Tashtayeva. M.Egamberidieva. Shaharlar geografiyasi. Toshkent "Inno vatsiya-Ziyo" 2020. 143-b.; Andijon viloyati statistika boshqarmasining andstat.uz sayti.

Qorasuv shahri Sobiq ittifoq davrida qo'shni Qirg'iziston Respublikasining shu nomdagi shahri bilan birga rivojlanib borgan ikki shaharni Shaxrisonsoy kanali ajratib turgan. Shahardan O'sh va Jalalobod shaharlari tamon temir yo'l tarmog'i tortilishi natijasida Qorasuvda sanoat tarmoqlari vujudga keldi va shahar rivojlandi. Mustaqillikdan keyingi yillarda bir butin bo'lib shakllangan shahar rivojlanishi chegaralar vujudga kelishi natijasida alohida rivojlana bordi. Qorasuv shahridagi sanoat rivojlanishi sustlashi natijasida shahar taraqqiyotida xam turg'inlik yuzaga keldi. Xozirgi kunda shahar aholi omili va kichik tadbirkorlik asosida rivojlanishi kuzatilmoqda.

Viloyatdagi boshqa shaharlar Poytug', Paxtaobod, Qo'rg'ontepa, Marxamat va Xo'jaobod bular tuman markazlari hisoblanib 1970-1980-yillarda yengil va oziq ovqat sanoati markazlari sifatida shakllangan. Mustaqillik yillarida rusiyazon aholining ommaviy ko'chishi natijasi Marxamat va Paxtaobod shaharlari aholi sonida kamayish kuzatildi. Bu shaharlarni

barchasi keyingi yillarda xizmat ko'rsatish markazlari, yengil va oziq ovqat ishlab chiqarish xamda yuqori demografik salohiyati tufayli o'sib bormoqda [7].

Xulosa va takliflar. Andijon viloyatidagi shaharlarni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar amalda oshirilmoqda. Jumladan 2017-2022-yillarda mintadagi barcha shaharlarning bosh rejasini ishlab chiqildi. Shuningdek mavjud shaharchalarning 30 % ni bosh rejalari 2021-2024-yillarda ishlab chiqilishi nazarda tutilgan [9].

Ishlab chiqilgan bosh rejaga asosan Andijon shahri maydoni 7228.2 ming gektardan 21660 ming gektarga yetkazilishi nazarda tutilgan. Shahar maydoni qariib 3-borabarga kengayadi. Aholi soni 460 mingdan 806 mingga yetishi kutilmoqda. Shahar maydoni asosan Andijon tumani va qisman Oltinko'l tumani hududlari hisobida kengaytiriladi. 2022-2030-yillar mobaynida Andijon shahrini yangi kengaytirilayotgan Andijon tumanining Istiqlol massivida 160 ming kishilik Yangi Andijon shahrini barpo etilishi natijasi 2030-yilga kelib Andijon shahri ham 1 mln kishilik aholiga ega shaharga aylanishi mumkin. Shahar rivojlanishida uning geografik o'rni, siyosiy mavqeyi tufayli rivojlanishida asosiy rol o'ynamoqda.

Asaka shahrida hozirgi kunda 71 ming kishi istiqomat qilayotgan bo'lsa tasdiqlangan bosh rejaga ko'ra shahar hududi atrof hududlar va yangi massivlar qurish hisobida kengayib 135 ming aholi istiqomat qiluvchi shahar bo'lishi rejalashtirilgan. Shahrixon shahri ham atrof hududlar va yangi turar joy dahalari qurilishi natijasida 148 ming kishilik shaharga aylanadi. Ushbu shaharning keyingi yillardagi rivojida shahar hududida demografik salohiyatning yuqoriligidir

Hozirgi kunda viloyatda buysunuvchi maqomga ega bo'lgan Xonobod shahri bosh rejasidan shuni bilish mumkinki shahar hududi shahar hokimiyatiga qarashli Xidirsha, Fozilmon qishloqlari va Xonobod shaharchalari hamda Qo'rg'ontepa tumanidagi Sultoobod shaharchalari hisobiga kengayishi natijasida 50 mingdan ortiq aholiga ega bo'ladi. Turuzm va sanoat mazkur shaharning kelajagida asosiy rivojlanish omili bo'lishi kutilmoqda.

Yana bunday keskin o'zgarishni Marhamat shahri misolida ham ko'rishimiz mumkin. 2021- yil yakunida shaharda 17 mingdan ziyod aholi bo'lgan bo'lsa bir qancha ma'muriy o'zgarishlar natijasida tasdiqlangan rejaga ko'ra shahar hududi Marhamat shaharchasi hududi bilan birlashtirilib aholisi soni 47 mingdan ortishi kutilmoqda.

Xo'jaobod shahrida keyingi yillar yengil va oziq ovqat sanoatini rivojlanishi natijasida shahar jadal rivojlanib bormoqda. Bu shaharning bosh rejasida ham o'z aksini topgan. Unga ko'ra shahar hududida yangi qurilishlar hisobidan ichki migratsiyani shakllantirish orqali shahar aholisi soni 35 mingdan ortadi.

Mintaqadagi Oxunboboyev, Poytug, Qo'rg'ontepa, Paxtaobod va Qorasuv shaharlarini bosh rejalarda keskin o'zgarishi belgilanmagan. Bu shaharlarda ham shahar hududini qisman kengayishi va yangi aholi yashash manzilgohlarining qurilishi natijasida mazkur shaharlarda aholi soni sezilarli daraja o'sishi kuzatiladi.

Andijon viloyatidagi 79 shaharchalarning 7 tasida hozirgi kunda 20 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ushbu shaharchalarni bosh rejalari ishlab chiqilmoqda. Ularning ichida tuman markazi funksiyasini bajaruvchi Baliqchi, Oltinko'l, Buloqboshi va Bo'ston shaharchalarida shahar maqomini berish dolzarbdir. Buning uchun ushbu shaharchalarni iqtisodiy ijtimoiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar va infratuzilmalarini tashkil qilish zaruriyati mavjud.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF 5623-sonli "Urbanizatsiya jarayonini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. Lex.uz.
2. Soliev A. Nazarov M. Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijlmoiy – iqtisodiy rivojlanishi. -T.: "Mumtoz so'z", 2010.
3. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K, Egamberdieva M.M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.- T., "Vneshinvestprom", 2019.
4. Баранский Н. Об экономико-географическом изучении города-М., 1956. с-21.
5. Tashtayeva S.K., Qosimov X.S. Farg'ona mintaqasi turistik koridori shaharlarining rivojlanish imkoniyatlari // "Zamonaviy geografik tadqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishi, tabiatdan oqilona foydalanish va turizm masalalari". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Nukus, 2021.- 113-116-b.
6. Qosimov X.S. Farg'ona mintaqasi shaharlari funksiyalarini takomillashtirish masalalari // "Kompleks geografik tadqiqotlar: innovatsiya va amaliyot" Respublika ilmiy-amaliy konserinseyasi materiallari.- Andijon, 2022.- 82-87-bet.
7. Qosimov X.S. Shaharlar taraqqiyotida turistik koridorlarning ahamiyati // "Geografik tadqiqotlar: innovatsiyon g'oyalar va rivojlanish istiqbollari". Xalqaro ilmiy amaliy konfirensiya materiallari.- Toshkent, 2022. -392-396-bet.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining 2021-yil yakunlari bo'yicha Axborotnomasi.-T., 2022.
9. O'zGASHLITning <https://dshk.uz/uz/> sayti.